



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, mart.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)

Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.

Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.

Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari

Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.

Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

XODIMLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI, KORPORATIV MADANIYAT VA MEHNAT UNUMDORLIGI O'RTASIDAGI UZVIY BOG'LIQLIKNI CHUQUR TAHLIL QILISH.....	8
Shoabdurashidova Mahina Jaxongir qizi, Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ESG TAMOYILLARI INTEGRATSIYASI ORQALI KORXONALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH.....	15
Jolg'ashova Nozima Mansurovna, T.D. Mamatkulov	
АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	21
Давлетова Адиля Азатбаевна, Сапаев Дилшод Хушнудович	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHI IQTISODIY O'SISHNING OMILI.....	27
Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich	
“LOKOMOTIV” MEHMONXONASI ZAMONAVIY SHAROITLARDI XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	31
Masharipov O'rolbek Ozod o'g'li, Khodjaeva Nodiraxon Abdurashidovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	36
Boybosinova Shaxlo Meles qizi, Ostonov Muhridin Bahriddin o'g'li	
AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONIDA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH VA BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	44
Qodirjonov Dilshodjon Qosimjon o'g'li, Xolmirzayev Ulug'bek	
BUXGALTERIYA HISOBINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	49
Igamberdieva Kunduz Ergashevna, O'razova Marjona Valiboy qizi	
ВЛИЯНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ.....	55
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Давронов Дониёрбек Заррухович	
ANALYSIS OF OUR COUNTRY'S POSSIBILITIES FOR ACCESS TO THE SEA THROUGH THE KABUL CORRIDOR.....	61
Khuzhamov Babur, Khudoyberdiev Diyorbek, Jumaboev Bekzod	
O'ZBEKISTONDA ESK.UZ TIZIMINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA ISTIQBOLLARI	69
M.J.Nurmetova, Baxtyorov Ahadbek Doniyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KRIPTOVALYUTALARNING JORIY FOYDALANISHINI TAHLIL QILISH.....	77
Qobilova N. Q., Normurodov X. E.	
MOLIYAVIY RISKLAR VA ULARNI XALQARO MIQYOSDA BOSHQARISH USULLARI.....	83
Toirov Bobur G'ofir o'g'li, F.U.Umarov	
SUN'IY INTELEKTNING INSON ONGIGA VA DAVLAT KORXONALARINI RAQAMLASHTIRISHGA TA'SIRI.....	90
Uskanboyev Temurbek Ismoil o'g'li, F.U.Umarov	
IQTISODIYOT TARMOQLARI YUKLARINI TASHISHNI TASHKIL ETISH.....	97
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	



TARIXIY OBIDALAR ASOSIDA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH.....	102
Boltaboyeva Maqsuda Matjonboy qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INTERNET VA IJTIMOIIY TARMOQLARNING ROLI.....	105
Abdumutalova Shahzoda Yodgorjon qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	



TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INTERNET VA IJTIMOY TARMOQLARNING ROLI



Abdumutalova Shahzoda Yodgorjon qizi

Namangan davlat texnika universiteti talabasi

E-mail: shahzodaabdumutalovaa@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: abr_max@bk.ru

ORCID: [0000-0003-4594-9335](https://orcid.org/0000-0003-4594-9335)

Annotatsiya: Maqolada turizm sohasini rivojlantirishda internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'ri, ularning marketing, axborot tarqatish, turistik xizmatlarni targ'ib qilish hamda turistlarning qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar va foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontentning turizm industriyasiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari internet va ijtimoiy tarmoqlar turizmni rivojlantirishda muhim strategik vosita ekanligini namoyon etadi.

Kalit so'zlar: turizm, internet marketingi, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli marketing, turistik xizmatlar, onlayn reklama.

Abstract: The article scientifically analyzes the role of the Internet and social networks in the development of the tourism sector, their impact on marketing, information dissemination, promotion of tourist services, and the decision-making process of tourists. The impact of modern digital technologies, online platforms, and user-generated content on the tourism industry is also considered. The results of the study show that the Internet and social networks are important strategic tools in the development of tourism.

Key words: tourism, internet marketing, social media, digital marketing, tourist services, online advertising.

Аннотация: В статье научно анализируется роль Интернета и социальных сетей в развитии туристической отрасли, их влияние на маркетинг, распространение информации, продвижение туристических услуг и процесс принятия решений туристами. Также рассматривается влияние современных цифровых технологий, онлайн-платформ и пользовательского контента на индустрию туризма. Результаты исследования показывают, что Интернет и социальные сети являются важным стратегическим инструментом в развитии туризма.

Ключевые слова: туризм, интернет-маркетинг, социальные сети, цифровой маркетинг, туристические услуги, интернет-реклама.

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi global iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlariga, xususan, turizm sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Turizmni rivojlantirish bugungi kunda nafaqat madaniy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi soha, balki ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotining muhim daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, turizm global iqtisodiyotda xizmatlar sektorining eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib, u millionlab ish o'rinlarini yaratish, hududiy infratuzilmani rivojlantirish hamda mamlakatlarning xalqaro imijini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Zamonaviy turizm sanoati raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Internet tarmog'ining keng tarqalishi va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi turistik xizmatlarni targ'ib qilish, marketing strategiyalarini shakllantirish hamda turistlar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ilgari turistik ma'lumotlar asosan an'anaviy reklama vositalari — gazeta, jurnal, televideniye yoki turistik agentliklar orqali tarqatilgan bo'lsa, hozirgi kunda sayohatchilar zarur ma'lumotlarni asosan internet manbalari orqali olishmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar, jumladan, Facebook, Instagram, YouTube va TikTok kabi platformalar turizm marketingining muhim vositasiga aylanib ulgurdi. Ushbu platformalar orqali turistik yo'nalishlar, tarixiy obidalar, milliy madaniyat va tabiiy manzaralar keng ommaga tezkor hamda vizual jihatdan jozibali tarzda taqdim etilmoqda. Ayniqsa, foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontent — fotosuratlar, videolar, sharhlar va tavsiyalar — sayohatchilarning turistik manzilni tanlash jarayonida muhim rol o'ynamoqda.

Internet texnologiyalari turizm xizmatlarining ko'plab jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtirdi. Jumladan, mehmonxona bron qilish, aviachiptalarni xarid qilish, turistik marshrutlarni rejalashtirish hamda turli xizmatlar haqidagi sharhlarni o'rganish kabi jarayonlar onlayn platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa turistlarga vaqt va mablag'ni tejash imkonini berish bilan birga, turizm sohasining samaradorligini yanada oshirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizmni rivojlantirish bugungi kunda nafaqat madaniy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi soha sifatida, balki iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida ham keng tadqiq etilmoqda. Xorijiy olimlarning ushbu yo'nalish bo'yicha ilmiy qarashlari turizm raqamli texnologiyalarning ahamiyatini ochib beradi. Jumladan, Dimitrios Buhalis ta'kidlashicha, internet turizm sanoatini tubdan o'zgartirgan. Avval sayyohlar asosan turistik agentliklarga bog'liq bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ular onlayn bron qilish, mehmonxonalarni solishtirish va sharhlarni o'rganish orqali mustaqil ravishda qaror qabul qilmoqda. Olim ushbu jarayonni "raqamli turizm ekotizimi" sifatida izohlaydi.

Xitoylik olim Xiang Zeng fikricha, ijtimoiy tarmoqlar sayyohlarning sayohat tanloviga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Instagram, bloglar va videoplatformalarda joylashtirilgan real tajribalar hamda foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontent natijasida sayyohlar muayyan manzillarga tashrif buyurishga ilhomlanadi.

O'zbek olimlarining ilmiy ishlari ham mazkur yo'nalishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, A. Abduvaxidov ta'kidlashicha, raqamli marketing vositalari va ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy turizm strategik ahamiyat kasb etadi. Ular sayyohlar ishonchini oshirish, onlayn reklama orqali konversiya (bron qilish) ko'rsatkichlarini ko'paytirish hamda sun'iy intellekt va chatbotlar yordamida turistik xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Natijada turizm korxonalarining raqobatbardoshligi ortadi.

F. S. Rakhmonova fikricha, ijtimoiy tarmoqlar marketingi sayyohlarning qaror qabul qilish jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Turistlarning katta qismi sayohat g'oyasini aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllantiradi. Shuningdek, destinatsiya imiji (mamlakat haqidagi tasavvur)ni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi hamda reklama samaradorligini oshiradi. Bu esa turizm daromadlarining ortishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda turizmni rivojlantirishda internet va ijtimoiy tarmoqlarning rolini aniqlash maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy usullar uyg'unligi ta'minlandi. Xususan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali turizm sohasida raqamli texnologiyalarning ahamiyati o'rganildi hamda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari tizimlashtirildi.

Amaliy qismda esa Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani Nanay qishlog'i misolida kuzatuv va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Hududning turistik salohiyati, internet va ijtimoiy tarmoqlarda aks etishi, foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontent tahlil qilindi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan foto va videomateriallar asosida turistlarning qiziqish darajasi hamda tashriflar dinamikasi baholandi.

Bundan tashqari, tahlil jarayonida statistik va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanilib, internet texnologiyalarining turizm rivojiga ta'siri aniqlashtirildi. Olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy turizm sanoatida mehmonxona xo'jaligi muhim infratuzilma elementlaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi mehmonxona xizmatlari ko'rsatish tizimini sezilarli darajada takomillashtirmoqda. Ya'ni, internet texnologiyalaridan foydalanish mehmonxonalar faoliyatining



samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash hamda mijozlar bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda mehmonxonalar o'z xizmatlarini targ'ib qilish va mijozlarni jalb etishda internet marketingdan keng foydalanmoqda. Mehmonxonalarning rasmiy veb-saytlari orqali mijozlarga xonalar, xizmat turlari, narxlar, mavjud qulayliklar hamda joylashuv haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etiladi. Shuningdek, mehmonxona saytlarida onlayn bron qilish tizimlarining joriy etilishi turistlarga istalgan joydan turib xizmatlarni oldindan buyurtma qilish imkonini bermoqda.

Internet texnologiyalarining rivojlanishi mehmonxona xizmatlarini boshqarishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy mehmonxonalar turli axborot tizimlari — Property Management System (PMS) orqali xonalar bandligini nazorat qilish, mijozlar ma'lumotlarini saqlash, to'lovlarni boshqarish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatiga ega. Bu esa mehmonxona boshqaruvining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Mehmonxonalar faoliyatida xalqaro onlayn bron qilish platformalarining o'rni ham katta hisoblanadi. Bunday platformalar mehmonxonalar va turistlar o'rtasida vositachi sifatida xizmat qilib, turistik xizmatlarning xalqaro miqyosda keng tarqalishiga imkon yaratadi. Eng mashhur platformalar qatoriga Booking.com, Expedia, Airbnb, Agoda va TripAdvisor kabi tizimlar kiradi. Ushbu platformalar orqali turistlar mehmonxonalarni qidirish, narxlarni solishtirish, xizmatlar haqida ma'lumot olish hamda onlayn bron qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mazkur platformalarning yana bir muhim xususiyati — foydalanuvchilar tomonidan qoldirilgan sharhlar va reyting tizimidir. Mehmonxona xizmatlaridan foydalangan mijozlar o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali boshqa turistlarga foydali ma'lumot taqdim etadi. Bu esa mehmonxonalarda xizmat sifatini yanada oshirishga rag'batlantiradi hamda turizm bozorida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida turizmni rivojlantirishda internet va ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani Nanay qishlog'i misolida tahlil qilindi. Nanay qishlog'i tabiiy landshaftlari, tog'oldi hududi, ekologik toza muhiti hamda milliy an'analarga boyligi bilan ajralib turadi. Ushbu hududning tabiiy va madaniy turistik salohiyati ekologik turizm, qishloq turizmi hamda dam olish turizmini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

So'nggi yillarda hudud haqida ma'lumotlarning internet tarmoqlarida keng tarqalishi Nanay qishlog'iga bo'lgan qiziqishning ortishiga xizmat qilmoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan foto va videomateriallar ushbu hududning tabiiy go'zalligi, tog' manzaralari hamda mahalliy aholi turmush tarzini keng auditoriyaga namoyish etmoqda. Natijada hududga mahalliy turistlar bilan bir qatorda boshqa viloyatlardan keluvchi sayyohlar soni ham izchil ortib bormoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Nanay qishlog'i haqida ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan kontent asosan sayyohlar tomonidan yaratilgan bo'lib, ular o'z sayohat taassurotlarini foto va video shaklida baham ko'rmoqda. Bunday foydalanuvchi kontenti hududning turistik jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Instagram va Telegram kabi platformalarda Nanay qishlog'ining tog' manzaralari, tabiat qo'ynidagi dam olish maskanlari hamda mahalliy milliy taomlar aks ettirilgan materiallar turistlar e'tiborini faol jalb etmoqda.

Nanay qishlog'ining turistik imkoniyatlarini rivojlantirishda raqamli marketing strategiyalarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Hududning tabiiy landshaftlari, tog' sayyohligi imkoniyatlari hamda qishloq turizmi elementlarini internet platformalarida tizimli ravishda targ'ib etish orqali hududga tashrif buyuruvchi turistlar oqimini yanada oshirish mumkin. Ayniqsa, ekologik turizm, agroturizm hamda milliy madaniyat bilan tanishtiruvchi turistik dasturlarni internet orqali targ'ib qilish hududning iqtisodiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Nanay qishlog'ining turistik salohiyatini rivojlantirishda internet va ijtimoiy tarmoqlar muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, hududning turistik imkoniyatlarini yanada samarali targ'ib qilish uchun mahalliy turizm subyektlari tomonidan onlayn marketing strategiyalarini ishlab chiqish, rasmiy turistik platformalarda hudud haqidagi ma'lumotlarni kengaytirish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy turizm sanoatining rivojlanishida internet va ijtimoiy tarmoqlar muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi turizm sohasida axborot almashinuvi jarayonini tezlashtirib, turistik xizmatlarni targ'ib qilish, turistlar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatish hamda turizm mahsulotlarini global miqyosda taqdim etish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Maqolada turizm marketingida internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlarning roli tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, turistik manzillar haqida vizual va interaktiv kontentni ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ib etish turistlarning sayohat qilishga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontent, ya'ni sayohatchilarning shaxsiy tajribalari, fotosuratlar va sharhlari turistik manzilni tanlash jarayonida muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi.



Bundan tashqari, mehmonxona xo'jaligida internet texnologiyalaridan foydalanish xizmatlar ko'rsatish jarayonini sezilarli darajada takomillashtirmoqda. Mehmonxonalar tomonidan rasmiy veb-saytlar, onlayn bron qilish tizimlari hamda xalqaro turistik platformalardan foydalanish xizmatlarning ochiqligini ta'minlab, mijozlarga qo'shimcha qulayliklar yaratmoqda. Booking.com, Expedia, Airbnb kabi platformalar orqali mehmonxonalar o'z xizmatlarini global turizm bozorida samarali targ'ib qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Umuman olganda, internet va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish turizm sanoatini rivojlantirish, turistik xizmatlar sifatini oshirish hamda milliy turistik salohiyatni xalqaro miqyosda targ'ib qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

- turizm sohasida faoliyat yurituvchi subyektlar uchun raqamli marketing strategiyalarini ishlab chiqish va joriy etish;
- ijtimoiy tarmoqlarda sifatli va tizimli kontent yaratishni rag'batlantirish;
- turistik hududlar bo'yicha rasmiy onlayn platformalarni rivojlantirish va ularni muntazam yangilab borish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, sun'iy intellekt va raqamli servislarni turizm amaliyotiga keng joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, PF-158-son, 11-09-2023. <https://lex.uz/docs/6600413>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-fevraldagi "Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2750-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/3103829>
3. Boltabayev. "Turizm: nazariya va amaliyot". – Toshkent, 2018. URL: <https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/37315/23841/38996>
4. M.T. Aliyeva. "Mehmonxona menejmenti" darslik. – Toshkent, 2010.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>